

7- SINIF ONA TILI DARSLIGIDA “YOZUVCHI BO'LISH OSONMI?” MAVZUSINING O'QITILISHI

Normurodova Zaynura G'olibjon qizi

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Djakbarova Mahliyo

SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Bilamizki, maktabda “Ona tili” darsliklarini o'qitishda to'rtta kompetensiyaga asoslanmoqda. Bu esa o'quvchi yoshlarni kelajakka ertangi kunga tayyorlash kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarda qo'llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. Bu kompetensiyalar o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish. Darsliklardagi mavzular ham shu kompetensiyalarga asoslangan.*

Kalit so'zlar:*Badiiy ijod, badiiy uslub, yozuvchilik sirlari, matn tuzish, ko'chma ma'noli so'zlar, iboralar, tasviriy ifoda, omonimlar, hikoya yozish.*

7- sinf darsligi mualliflari Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dulla Qurbonov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. 7- sinf “Ona tili” darsligida “Yozuvchi bo'lish osonmi?” mavzusini o'qitish 4 soatga mo'ljallangan. Bu mavzuni bevosita adabiyot fani bilan bog'lab tushuntirish lozim. Chunki unda adiblar hayoti va ijodi ular bilan bog'liq voqealar aks etgan. Bu mavzu o'quvchilarni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga, hikoyalarni o'qib tushunishga, hikoyalar, asarlar asosida o'quvchilarga grammatikani o'rgatishga asoslanadi. Darslikning birinchi o'tilishi kerak bo'lgan qismida Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Erkin A'zam kabi ijodkorlarning adabiyot, yozuvchilik haqidagi fikrlari bayon etilgan. Jumladan, Abdulla Qahhorning quydagi fikri keltirilgan. “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas”. [1.133-bet.] Ijodkorlarning fikrlari asosida grammatik topshiriq berilgan.

Quyida bir mashq asosida grammatik topshiriqlar ishlab chiqamiz.

Adabiyoti bo'lmagan, adabiyotining taraqqiysiga intilmagan va adib yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqirozga yuz tutadi.

Abdulhamid Cho'lpon

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchni o'tin yorishga sarf qilish kerak emas.

Abdulla Qahhor. [1.133 b].

Topshiriqlar.

1. Ijodkorlarning fikrlari tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini aniqlab, ma'nodosh so'zlar qatorini hosil qiling.

2. Ma'nodosh so'zlar haqida ma'lumot bering.

3. Badiiy ijod va badiiy uslub haqida ma'lumot bering.

Topshiriq javoblari.

1. Taraqqiy – rivojlanmoq, o'smoq, yuksalmoq, mukammallashmoq

adib- yozuvchi, shoir

oxiri-intiho, nihoya

lekin-ammo, biroq

kuch-darmon, majol

sarf qilmoq-xarajat qilmoq, chiqim qilmoq

2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – shakli har xil, ma'nosi bir – biriga yaqin bo'lgan so'zlar. Sinonimlar bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi barcha so'z turkumlarida sinonimlik mavjud. Sinonimik qatordagi asosiy so'z dominanta deyiladi. U uslubiy betaraf bo'ladi: masalan: yuz, chehra, jamol, bashara, turq. Yuz – dominanta, asosiy so'z, u uslubiy betaraf.

Chehra, jamol – ijobiy bo'yoqdor so'zlar.

Bashara, turq – salbiy bo'yoqdor so'zlar.

3. Badiiy asar matni badiiy uslubda yoziladi. Bu uslubda so'zning tasvir imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Odatda, badiiy matn chiroyli o'xshatishlarga, ramzlarga boy bo'ladi. Shu sababli badiiy uslubning xususiyatlari haqida so'z borganda, avvalo, uning obrazlilik e'tiborga olinadi.

Ijodkor badiiy nutqda so'zning o'ziga xos qirralari, xilma-xil ma'nolari vositasida o'quvchiga estetik ta'sir o'tkazishni maqsad qiladi. Masalan, "Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi.

Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi". [3. 10 b]

parchasida ajratilgan qismlarga e'tibor qarating. Bu o'rinda yozuvchi so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab, o'quvchiga bahor manzaralarini o'zgacha ko'rish imkonini beradi. Ya'ni o'quvchi shunchaki bahorni emas, "ko'ngilni qitiqlayotgan" bahorni tasavvur

qila boshlaydi. Eslang: qishning sovuq kunlari tugab, ko'kda quyoshning ilk nurlari chakkangiz, quloqlaringiz, iyaklaringiz ostiga tushganda tabiat sizni qitiqlaganday bo'lmaganmi? Balki, adib shu lahzalarni tasvirlashga uringandir.

Endi o'ylab ko'ring: "Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi" deganda muallif qanday manzarani tasvirlagan bo'lishi mumkin?

Shulardan xulosa qilish mumkinki, "badiiy matn", "badiiy uslub", "badiiy nutq" deganda sizni olamga, voqea-hodisalarga boshqacha bir nigoh bilan qarashga undaydigan, hissiy zavq ug'otadigan til (matn) tushuniladi.

Asosan darslikdagi topshiriqlar, mashqalar raqamlanmagan, topshiriqlarni qay tartibda bajarish shartli belgilarda ko'rsatib o'tilgan. Shuning uchun ham shartli belgilar ahamyatga ega. Mavzuning birinchi qismida topshiriqlar "Sariq devni minib", "Kecha va kunduz" asarlari asosida tuzilgan. Ikkinchi qismi "O'tgan kunlar", Abdulla Qahhorning "Anor" asarlari asosida. Uchinchi qismida "El" va "Qo'l", "Kabob"ning o'zbekchasi matnlari asosida tuzilgan [1.133-142].

Birinchi uyga vazifada Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridan olingan parchadan badiiy tasvirni ifodalashga xizmat qilayotgan birliklarni aniqlash, Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to'planib qolgan horg'inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko'rpaning kattakatta qovig'iga tikilgan andishalik ko'zlari hovur bosgan oynakning betiga o'xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so'ng so'zlaridagi og'ir ma'yuslikni payqay olmadi. Uning ko'zlari Zebida bo'lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi. [3.30-bet]

Ikkinchi uyga vazifada berilgan parchadan iboralarni topish (parcha kitobda berilgan), va mustaqil ravishda ham iboralar topish, dastlab o'quvchilarga iboralar haqida bilimlarini esga tushurish.

Ibora (arabcha) — 1) biror bir tushuncha yoki gapning bir so'z bilan ifodalanishi: qovog'idan qor yog'yapti, kapalagi uchdi, tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi, qovun tushirdi va hokazo. Ibora o'zi ifodalayotgan tushuncha bilan so'zga teng, lekin uslubiy bo'yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo'yoqdor bo'ladi [2.216-217].

Uchinchi uyga vazifada G'ofur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidan notanish bo'lgan so'zlar lug'atini tuzing.

[1] Uvunto'da - eski, titilib ketgan.

[2] Turmuchlab - buklab.

[3] Lut-loyamut - yetarli ovqat.

[4] Chavati non - oshirilmagan xamirdan qilinadigan yupqa non.

[5] Kerinska poshsho - Rossiyada 1917-yilning fevralidan oktabr oyiga qadar hukm surgan muvaqqat (vaqtinchalik) hukumat boshlig'i.

[6] G'ulomgardish - hovli darvozasi yonida qullar yashaydigan kulba; bu yerda «yo'lak» ma'nosida ishlatilgan.

[7] Murt gardoni - hisob-kitobi, javobi.

[8] Egiligini - «rohatini», «orzu-havasini» ma'nosida. [4.]

To'rtinchi uyga vazifada hikoya yozish, o'quvchilarni ijodkorlikka, kichik bo'lsa ham o'z hikoyasini yaratishi kerak.

Bu topshiriqlar ham to'rtta kompetensiyalardan bir nechtasiga asoslangan. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu topshiriqlarda o'qib tushunish, yozish, gapirish, faqat bitta kompetensiya yuzasidan topshiriq shakllantirilmagan bu tinglab tushunishga asoslanadi. Bu mavzuda tinglab tushunishni ham shakllantirish kerak. Bu mavzu uchun tinglab tushunish

juda qiziqarli, o'quvchilar uchun ham qiziq bo'ladi. Biz bu mavzuda "Sariq devni minib" asariga audio material tayyorlasak 7-sinf o'quvchilar uchun qiziq va ahamyatlidir. Mavzudan o'zlashtiriladigan grammatik qoidalar ko'chma ma'noli so'zlar, iboralar, sinonimlar, hikoya yozish, tasviriy ifoda, omonimlar ,yozuvchilik sirlari,badiiy uslub haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Bu mavzu o'quvchilarni ijodkorlikka ,hech bo'lmaganda kichkina hikoya yozishga bo'lsa ham undaydi. Ona tiliga qiziqmagan o'quvchi ham asar o'qishga, sarguzashtli hikoyalarni tinglashga qiziqadi. Mavzu orqali ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dulla Quronov, Shakir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Ona tili.Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022.

2.H.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek tili" ,Toshkent "Talqin" 2005-y.

3. Cho'lpon "Kecha va kunduz" Toshkent 2016-y.

4. G'ofur G'ulom "Mening o'g'rigina bolam" Toshkent 2010.

9. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҶАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.

10. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҶАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.

11. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.

12. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.

13. Мамаджонов, Р. (2023). "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O 'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).

14. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

15. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

16. MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg 'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg 'ona davlat universiteti o'qituvchisi OA Tursunov–Farg

‘ona politexnika instituti akademik litsey o‘quvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI,
275.